



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G‘I

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar
to‘plamini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda yangidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy hujjatlar to‘plamini tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi tavsiyaviy hujjatlar to‘plami loyihalari ishlab chiqilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagi idoraviy hujjatlar:

Raqamli texnologiyalar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyati 2-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom 3-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati 8-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament 10-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligida davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 11-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish to'g'risidagi tartib 12-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi to'g'risida Nizom 13-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i va bosh mutaxassisining lavozim yo'riqnomasi 14-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i va bosh mutaxassisi lavozimining malaka talablari 15-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom 16-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (I.Turayev):

mazkur tasdiqlangan idoraviy hujjatlar to'plami talablaridan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlarni belgilangan muddatlarda bajarsin;

Vazirlik tizimidagi korxona, tashkilot va muassasalarga o'z ichki idoraviy hujjatlar to'plamini ishlab chiqilishida qo'llash uchun yuborsin.

4. Vazirlik tizimidagi aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ushbu buyruqdan kelib chiqib, ichki hujjatlarining ushbu buyruqqa muvofiqlashtirilishini hamda qabul qilingan hujjatlarning kelgusida amaliyotga to'liq tatbiq etilishini ta'minlasin.

5. Belgilab qo'yilsinki, ichki mehnat tartibi qoidalari talablarining buzilishi qonun hujjatlariga muvofiq Vazirlik markaziy apparati hamda hududiy bo'linmalari xodimlariga intizomiy jazo berish va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

6. Raqamli texnologiyalar vazirligining 2022-yil 28-oktabrdagi 513-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (M.Chulliyeva) mazkur buyruq bilan barcha xodimlar tanishtirilishini ta'minlasin.

8. Axborot xizmati (Sh.Axmatov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ushbu idoraviy hujjatlar to'plami Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin hamda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning Vazirlik rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borilishini ta'minlasin.

9. Mazkur buyruq bajarilishi yuzasidan nazoratni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov